ALISHER NAVOIY DEVONLARI NOMLARINING INGLIZCHA TARJIMASIDA IZOFA MUNOSABATINING IFODALANISHI

Zayniyeva Yulduz Faxriddinovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Tayanch doktoranti
+998998943116
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23601140

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy devonlari nomlarining inglizcha tarjimalarida izofa munosabatining ifodalanishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar" devon nomlari hamda ularning J. Leyden–V. Erskin, S. Beverij va V. Tekston tarjimalaridagi variantlari olinadi. Tahlil jarayonida izofali konstruksiyalarning ingliz tilida of va from predloglari orqali ifodalanishi, shuningdek, transliteratsiya va mazmuniy tarjima usullarining qo'llanishi yoritiladi. Natijalar tarjimonlarning asl nomdagi grammatik va semantik munosabatlarni turli darajada saqlaganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, devon nomlari, "Xazoyin ul-maoniy", "Boburnoma", izofa, inglizcha tarjima, transliteratsiya, tarjima usullari

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") asari 1491–1496-yillarda tartib berilgan. "Xazoyin ul-maoniy" – "G'aroyib us-sig'ar" ("Yoshlik g'aroyibotlari"), "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirliklari"), "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari") nomli to'rt devonlardan tarkib topgan bebaho durdona asardir. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ham ushbu devonlarni bevosita qayd etadi. Bobur Navoiy ijodiga yuqori baho berib, uning turkiy tilda hech kim bunchalik ko'p va yaxshi she'r aytmaganini ta'kidlaydi hamda shoirning to'rt g'azaliyot devonini sanab o'tadi: "To'rt g'azaliyot devoni tartib qilibdur: "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-kibar" otlig'."

Ushbu devon nomlarining tarkibiy tuzilishida izofali munosabatni ko'rishimiz mumkin. "Boburnoma"dagi arabiy izofali konstruksiyalarda izofa indikatorining turli fonetik shakllarda namoyon bo'ladi. Izofalar izofali birikmalar tarkibida -ul, -il, -al shakllari uchraydi. "Boburnoma" asaridagi arabiy izofalar ko'p qismi -ul izofa indikatori bilan bog'langanligiga guvoh bo'ldik, jumladan asar nomlarida ham: "Favoid ul-kibar", "Badoyi ul-vasat".

Agar aniqlovchi so'z shamsiy harflardan biri bilan boshlangan bo'lsa, bu holda izofa ko'rsatkichi "-ul" emas, balki "-a" (yoki "-u", "-i") tovushlaridan keyingi harfni ikki marta talaffuz qilish bilan yuzaga keladi. Masalan, "Navodirush-shabob" birikmasi. Bu yerda aniqlovchi "sh" harfi bilan boshlanganligi sababli izofa ko'rsatkichi "-ush" shaklida ifodalangan[1]. "Boburnoma"da bu turdagi izofa ko'rsatkichi keyingi undoshning assimilatsiyasi natijasida o'zgarishlariga uchragan ko'pgina izofali birikmalarni ko'rish mumkin: G'aroyib **us**-sig'ar.

Ushbu devon nomlarini ingliz tiliga tarjima qilishda esa mazkur munosabat turli grammatik va leksik vositalar orqali ifodalangan. Shu jihatdan quyida "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob",

[1] Амонов М. "Бобурнома"да изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи. Фил. фан. док (PhD) дисс – Фарғона, 2020. – Б. 104.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

"Badoyi ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar" nomlarining J. Leyden–V. Erskin, S. Beverij hamda V. Tekston tarjimalaridagi variantlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Navoiy devonlari nomlarining inglizcha tarjimalari

Devon nomi (ot+izofa+ot)	J. Leyden–V. Erskin	S. Beverij	V. Tekston
"Ғаройиб ус-сиғар" Bolalik g'aroyibliklari	"Singularities of Infancy" – Bolalikning o'ziga xosliklari	"Ghara'ibu's-sighar" (Curiosities of Childhood) – Bolalikning g'aroyibliklari	"Gharayib **al**-sighar" (Extraordinary Verse from Childhood) –Bolalik davridan g'ayrioddiy she'rlar
"Наводир уш-шабоб" Yoshlik nodirotlari	"Wonders of Youth" – Yoshlikning mo'jizalari	"Nawadiru'sh-shahab' (Marvels of Youth) – Yoshlikning mo'jizalari	"Nawadir **al**-shabab" (Rarities of Youth) – Yoshlik nodirotlari
"Бадойи ул васат" O'rta yosh badialari	"The marvels of Manhood" – Yetuklikning mo'jizalari	"Bada'iul-wasat" (Wonders of Manhood) – Yetuklikning mo'jizalari	"Badi' **al**-wasat" (Remarkable Verse from Middle Age) – O'rta yosh davridagi ajoyib she'rlar
"Фавоид ул-кибар" Keksalik foydalari	"The Benefits of Age" – Keksalik foydalari	"Fawa'idul-kibr" (Advantages of Age)– Keksalik foydalari	"Fawayid **al**-kibar" (Benefits of Old Age) – Keksalik foydalari

"G'aroyib us-sig'ar" devon nomiga murojaat qilamiz. Asl nom tarkiban **ot + izofa + ot** modeliga ega bo'lib, "g'aroyib" – "g'aroyibliklar, ajoyibotlar", "sig'ar" esa "bolalik" ma'nosini anglatadi. Mazkur nomning inglizcha tarjimalarida tarjimonlar izofa munosabatini turlicha ifodalaganlar. Bu variantlar izofa munosabatining ingliz tilida **of** va **from** predloglari, shuningdek, transliteratsiya orqali qayta ifodalanganini ko'rsatadi.

"Navodir ush-shabob" ham tarkiban **ot + izofa + ot** modelida shakllangan bo'lib, "navodir" – "nodirliklar, noyobliklar", "shabob" esa "yoshlik, yigitlik davri" ma'nolarini anglatadi.

J. Leyden–V. Erskin variantida **"Wonders of Youth"** shakli qo'llanib, asl nomdagi izofa munosabati ingliz tilidagi **of** predlogi orqali ifodalangan. Bu yerda Wonders komponenti "navodir"ning, Youth esa "shabob"ning mazmuniy muqobili sifatida kelgan. S. Beverij ham **"Marvels of Youth"** variantida izofa munosabatini **of** orqali saqlagan, biroq asl arabcha-forscha nomning transliteratsiyasini ham qavs ichida keltirgan. V. Tekston esa **"Rarities of Youth"** variantini tanlab, "navodir" ma'nosini rarities so'zi bilan ifodalagan va izofa munosabatini yana **of** predlogi yordamida bergan.

Shunday qilib, uchala tarjimada ham mazkur devon nomining **izofa munosabati shakliy jihatdan ingliz tilidagi "of" konstruksiyasi orqali saqlangan**. Farq asosan "navodir" komponentining wonders, marvels va rarities tarzida turlicha leksiklashtirilganida ko'rinadi. Bu esa tarjimonlarning bir xil izofali strukturani saqlagan holda, uning semantik komponentlarini turlicha talqin qilganini ko'rsatadi.

"Badoyi ul-vasat" nomi ham **ot + izofa + ot** qolipida shakllangan bo'lib, "badoyi" – "badialar, ajoyib ijod namunalari", "vasat" esa "o'rta, o'rta yosh" ma'nosini anglatadi. Uning inglizcha tarjimalarida quyidagi variantlar uchraydi:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

J. Leyden–V. Erskin tarjimasida **"The Marvels of Manhood"** shakli qo'llanib, izofa munosabati ingliz tilidagi **of** predlogi orqali ifodalangan. Bu variantda badoyi komponenti marvels, vasat komponenti esa manhood orqali berilgan. S. Beverij tarjimasida ham **"Wonders of Manhood"** shakli orqali izofa munosabati saqlangan, shu bilan birga asl nomning transliteratsiyasi **"Bada'iul-wasat"** ko'rinishida keltirilgan.

V. Tekston esa **"Remarkable Verse from Middle Age"** variantini taklif qiladi. Bu tarjimada izofa munosabati **from** predlogi yordamida ifodalangan. From Middle Age birikmasi nomdagi "vasat" komponentining vaqt-davr ma'nosini ochishga xizmat qilsa-da, **of** orqali ifodalanadigan bevosita tegishlilik munosabatidan farq qiladi. Shuningdek, badoyi komponentining remarkable verse tarzida berilishi tarjimonning so'zma-so'z emas, balki mazmuniy-ekspressiv tarjimaga murojaat qilganini ko'rsatadi.

"Favoyid ul-kibar" ham **ot + izofa + ot** modelida shakllangan bo'lib, "favoyid" – "foydalar", "kibar" esa "keksalik, qarilik" ma'nosini anglatadi. Uchala tarjimada ham izofa munosabati **of** predlogi orqali ifodalangan. Farq asosan "favoyid" va "kibar" komponentlarining benefits, advantages hamda age, old age tarzida turlicha berilishida kuzatiladi. Shu bilan birga, Beverij va Tekston asl nomning transliteratsiyasini ham saqlagan.

Tahlil natijalari Alisher Navoiy devonlari nomlarining inglizcha tarjimalarida izofa munosabati turli usullar orqali ifodalanganini ko'rsatdi. J. Leyden–V. Erskin, S. Beverij va V. Tekston tarjimalarida **"G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar"** nomlarining mazmuni asosan ingliz tilidagi **of** predlogi yordamida qayta ifodalangan. Ayrim hollarda esa, xususan, V. Tekston tarjimasida **from** predlogidan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tarjimonlar izofa konstruksiyasining mazmunini saqlash bilan birga, uni ingliz tilining grammatik va leksik imkoniyatlariga moslashtirganlar. S. Beverij va V. Tekston tarjimalarida transliteratsiyaning qo'llanishi asl nomlarning tarixiy-lingvistik shaklini saqlashga xizmat qilgan. Demak, Navoiy devonlari nomlarini tarjima qilishda shakliy muvofiqlik, semantik aniqlik va asl nomning milliy-madaniy xususiyatlarini saqlash muhim omillar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amonov M. "Boburnoma"dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi". Filologiya fanlari bo 'yicha falsafa doktori (PhD).: Farg'ona. – 2020.
2. Beveridge, Anette Susannah. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. London. – 1921.
3. Leyden, John. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. London. – 1826.
4. Ishoqov, F. Boburnoma uchun qisqacha izohli lug'at. – Toshkent, 2008
5. W.Thackston. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York. – 1996.
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Шарқ. Тошкент. – 2014.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Бобурнома. Ўқитувчи. Тошкент. – 2008.
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Шарқ. Тошкент. – 2002.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.